

## **HUSNI-XULQDA MILLIYLIK VA INSONIYLIK UYG‘UNLIGINING AKS ETISHI**

**Nematova Orzigul Axmedovna,**

*Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi.*

*E-mail. [orzigulaxmedovna67@mail.ru](mailto:orzigulaxmedovna67@mail.ru).*

**Annotatsiya.** *Husni-xulqda milliylik va insoniylik uyg‘unligining aks etishi mazkur maqolada ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy axloqiy me‘yorlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, husni-xulq tushunchasining tarixiy ildizlari, zamonaviy talqini hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqola milliy o‘zlikni anglash va global qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv muammolarini yoritishga qaratilgan. Unda axloqiy ideal va madaniy merosning uzviyligi ham ilmiy dalillar asosida izohlanadi va xulosalar keltiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *husni-xulq, milliylik, insoniylik, qadriyatlar, axloq, uyg‘unlik, ma‘naviyat, jamiyat, tarbiya, madaniyat.*

**Аннотация.** *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется отражение гармонии национальности и гуманности в добропорядочном поведении. Раскрывается взаимосвязь между национальными ценностями и универсальными моральными нормами, их роль в развитии общества. Также обосновываются исторические корни, современная интерпретация и значение концепции добропорядочного поведения в воспитании молодежи. Цель статьи — осветить проблемы понимания национальной идентичности и ее гармонизации с глобальными ценностями. Также на основе научных данных объясняется согласованность моральных идеалов и культурного наследия и делаются выводы.*

**Ключевые слова:** *добропорядочное поведение, национальность, гуманность, ценности, мораль, гармония, духовность, общество, воспитание, культура.*

**Abstract.** *The reflection of the harmony of nationality and humanity in good behavior is analyzed in this article from a socio-philosophical perspective. It reveals the interrelationship between national values and universal moral norms, their role in the development of society. It also substantiates the historical roots, modern interpretation and significance of the concept of good behavior in the upbringing of youth. The article is aimed at highlighting the problems of understanding national identity and harmonizing with global values. It also explains the coherence of moral ideals and cultural heritage based on scientific evidence and draws conclusions.*

**Keyword:** *good behavior, nationality, humanity, values, morality, harmony, spirituality, society, upbringing, culture.*

**Kirish.** *Insoniyat tarixida husni-xulq, ya‘ni go‘zal axloq va o‘dododli bo‘lish masalasi har doim jamiyat barqarorligi, ma‘naviy yuksalish va shaxs kamolotining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralgan. Husni-xulqning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy axloqiy mezonlarning uyg‘unlashuvi markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki inson nafaqat o‘z millatining madaniy merosi, balki butun insoniyat tajribasidan o‘rganib, ma‘naviy komillikka intiladi. Shu nuqtai nazardan, husni-xulqni rivojlantirishning asosiy mezonlari ijtimoiy, falsafiy va madaniy birlikda namoyon bo‘ladi.*

“Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, diniy e’tiqodi, urf-odati, an’anasi va turmush tarzining yaxlit ifodasidir. Ular shaxsning xatti-harakatiga, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarga yo‘naltiruvchi me‘yor vazifasini bajaradi”[1]. O‘zbek xalqining qadimiy axloqiy tizimida “odob”, “hayo”, “vijdon”, “mehr”, “kamtarlik”, “sadoqat” kabi tushunchalar husni-xulqning poydevorini tashkil etadi. Bu qadriyatlar asrlar davomida og‘zaki ijod, diniy manbalar, adabiyot va falsafa orqali mustahkamlangan. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida insonning asl go‘zalligi uning odobida, axloqida ekanligini ta’kidlab, husni-xulqni insoniy fazilatlarining eng yuksak ifodasi deb biladi.

Milliy qadriyatlar husni-xulqni shakllantirishda “milliylik va insoniylik uyg‘unligi” mezoniga tayanadi. Bu mezon shaxsni milliy madaniyatga sodiq, shu bilan birga boshqa xalqlar qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan komil inson sifatida tarbiyalaydi. Shu bois milliy qadriyatlarda husni-xulqni rivojlantirish, bir tomondan, o‘zligimizni saqlash, ikkinchi tomondan esa, insoniyat bilan ma’naviy aloqada bo‘lish madaniyatini shakllantirishni anglatadi.

“Umuminsoniy qadriyatlar – bu turli madaniyat, din va millat vakillarini birlashtiruvchi axloqiy, ma’naviy va huquqiy mezonlar majmuidir. Ular orasida adolat, insonparvarlik, erkinlik, tinchlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi qadriyatlar ajralib turadi”[2]. Bu qadriyatlar nafaqat zamonaviy xalqaro hujjatlarda, balki barcha dinlarning asosiy ta’limotlarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, Islomda “axloq” tushunchasi insonning Alloh va bandalar oldidagi mas’uliyatini belgilovchi oliy fazilat sifatida e’tirof etiladi. Shu ma’noda, umuminsoniy qadriyatlar milliy axloqiy tizimni to‘ldirib, uni keng falsafiy mazmunga ega qiladi.

**Muhokama va natijalar.** Husni-xulqni rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlar “inson markaziy mezon” tamoyiliga asoslanadi. Ya’ni inson qadri, sha’ni va huquqlari barcha axloqiy tizimlarning asosiy manbai sifatida e’tirof etiladi. Bunda axloqiy yetuklik – millat, din yoki madaniyatdan qat’i nazar, har bir insonning ongli ravishda yaxshilikka intilishi, yovuzlikdan voz kechishi, o‘zini va boshqalarni hurmat qilishi bilan belgilanadi. Husni-xulqning shakllanishi ma’naviy-ma’rifiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Oila, ta’lim muassasalari, diniy va madaniy markazlar bu jarayonda asosiy ijtimoiy institutlar sifatida faoliyat yuritadi. Oila – milliy qadriyatlarning eng kichik, ammo eng ta’sirchan manbaidir. Ota-onaning odobi, bolaga berilayotgan mehr va sabr, avlodlar o‘rtasidagi hurmat – husni-xulqning amaliy ko‘rinishlaridir.

Ta’lim tizimi esa husni-xulqni ongli ravishda shakllantiradi. O‘quv dasturlarida milliy axloqiy qadriyatlarga asoslangan fanlarning o‘rni kuchaytirilishi, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, diniy-

ma'rifiy manbalar, masalan, Qur'on, Hadis, mutafakkirlar asarlaridan o'rinli foydalanish insonda axloqiy mas'uliyatni kuchaytiradi.

Falsafiy nuqtai nazardan husni-xulq insonning mavjudlikdagi ma'naviy mohiyatini ifodalaydi. U insonning o'zini anglash, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etish va erkin tanlov asosida yaxshilikni amalga oshirish qobiliyatidir. Shu bois husni-xulqni rivojlantirishda “erkinlik va mas'uliyat uyg'unligi” mezonini muhim ahamiyatga ega. “Erkinlik – insonning ongli faoliyati va mustaqil qaror qabul qilish huquqini bildirsa, mas'uliyat – bu qarorlarning natijalarini to'g'ri baholash va boshqalar manfaatini inobatga olishni anglatadi. Bu mezon shaxsning axloqiy yetuklik darajasini aniqlaydi”[3]. Chunki haqiqiy husni-xulq, tashqi majburlikdan emas, balki ichki e'tiqod, vijdon va ongli ishonchdan kelib chiqadi. Shunday qilib, falsafiy yondashuv husni-xulqni insonning o'zini o'zi tarbiyalash, axloqiy ongini rivojlantirish va ruhiy poklanish jarayoni sifatida tushuntiradi.

“Bugungi globallashtirish sharoitida axloqiy qadriyatlarning universallashtirishi bilan birga, milliy o'ziga xoslikni asrab qolish zarurati ham kuchaymoqda. Internet, ommaviy madaniyat, raqamli kommunikatsiyalar inson xulqiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda”[4]. Shu sababli husni-xulqni rivojlantirishda “raqamli ma'naviyat” konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya shaxsning virtual muhitda ham axloqiy me'yorlarga amal qilishi, hurmat, halollik va mas'uliyatni saqlashni nazarda tutadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yaratilgan axloqiy dasturlar, yoshlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy tadbirlar, ta'limda madaniy merosdan foydalanish, o'zaro hurmat va bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib etish husni-xulqni rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlaridandir. Ayniqsa, O'zbekiston tajribasida “Yangi O'zbekiston – ma'naviy jamiyat” tamoyili axloqiy qadriyatlarni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda husni-xulqni rivojlantirish insoniyat madaniyatining eng yuksak maqsadlaridan biridir. U shaxsning ichki dunyosini boyitadi, jamiyatda tinchlik, mehr-oqibat va adolat muhitini qaror toptiradi. Milliy qadriyatlar husni-xulqqa tarixiy mazmun, madaniy qiyofa va milliy o'zlik beradi; umuminsoniy qadriyatlar esa unga universallik, umumiy insonparvarlik ruhini baxsh etadi. Shu ikki yo'nalish uyg'unligida tarbiyalangan shaxs jamiyatning ma'naviy tayanchiga, insoniyatning barkamol a'zosi sifatida kamol topadi.[1]

Xulosa husni-xulqda milliylik va insoniylik uyg'unligining aks etishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar va umuminsoniy axloqiy me'yorlar o'zaro zid emas, balki bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Husni-xulq ana shu uyg'unlikning amaliy ifodasi bo'lib, unda milliy mentalitetga xos odob-axloq qoidalari

bilan insoniyat tomonidan e’tirof etilgan universal fazilatlar birlashadi. Shuningdek, husni-xulqning tarixiy ildizlari va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati ochib berildi. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga ochiqlikni ta’minlash zarurligi asoslab berildi. Bu jarayonda husni-xulq insonning ijtimoiy moslashuvi, madaniy integratsiyasi va ma’naviy kamolotida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida yoshlar tarbiyasida husni-xulqni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari ham aniqlashtirildi. Milliy an’analar, urf-odatlar va tarixiy meros asosida tarbiya berish bilan birga, zamonaviy axloqiy tamoyillarni singdirish muhim ekani ta’kidlandi. Bu esa yosh avlodda nafaqat milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, balki bag‘rikenglik, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, husni-xulqda milliylik va insoniylik uyg‘unligi jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy hamjihatlik va ma’naviy yuksalishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur uyg‘unlikni ta’minlash esa ta’lim-tarbiya tizimi, ijtimoiy institutlar va har bir shaxsning ongli faoliyati orqali amalga oshirilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mavrulova M. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyotl. – Toshkent: “Zarvaraq”, 2022. – B.55-56.
2. Mavrulov A. Ma’naviy barqarorlik ijtimoiy birlikni ta’minlovchi omil. – Toshkent. “Ma’naviyat”, 2023. – B.80.
3. Разгильдиева М.Б. «Свобода» и «ответственность» как правовые категории. проблема диалектики // Вестник Академии экономической безопасности МВД России № 2. 2009. – С.110.
4. Ruzieva R.X. Jamiyatning ma’naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish masalalaril Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2012. – B.119.